

1-TOM, 12-SON

**O'ZBEKISTON VA YEVIROPA TIKLANISH TARAQQIYOT BANKINING
HAMKORLIK ALOQALARINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI**

Pirmatova Farangiz Marufjonovna

o'qituvchisi Hozirgi vaqtda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti iqtisodiyotni modernizatsiyalash, ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy texnika-texnologiyalarni joriy qilish va shu asosda raqobatbardoshlikka erishish, jahon bozorlaridan mustahkam o'rin egallash, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish kabi vazifalarni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq. 2017-yildan boshlab mamlakatimizning xalqaro moliya tizimiga integratsiya jarayonlarining eng yuqori bosqichiga chiqib bormoqda. Buni biz mamlakatimizga investitsiyalarni jalb etishda xalqaro moliya institutlari tomonidan jalb etilayotgan kredit liniyalari orqali ko'rishimiz mumkin.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli farmoni 21-maqsadining amalga oshirish mexanizmiga muvofiq: "...Xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda kelgusi 5 yil uchun bir nechta ssenariyli makroiqtisodiy prognoz (makromodel)ni ishlab chiqish. Bunda: yalpi ichki mahsulotni 100 mlrd AQSh dollariga yetkazish va aholi daromadlarining yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash; tarkibiy islohotlarni amalga oshirishda iqtisodiyotga ta'sirini baholash; iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan energiya manbalari bilan ta'minlash; tashqi bozorlardagi o'zgarishlarni prognozlashtirish va iqtisodiy o'sishga tashqi omillar ta'sirini yumshatish; hududlar va tarmoqlarning iqtisodiy o'sishdagi hissasini aniqlash orqali "o'sish nuqtalari"ni belgilash; barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tavsiyalar va asosiy makroiqtisodiy yo'nalishlar bo'yicha aniq choralar ishlab chiqish"¹² kabi vazifalar belgilangan. Mamlakatimiz keyingi yillarda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish, xorijiy davlatlar bilan do'stona hamda o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish borasida



1-TOM, 12-SON

muhim natijalarga erishmoqda. Bu jarayonda, ayniqsa, Yevropaning bir qator davlatlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik sezilarli darajada mustahkamlandi.

BMT, YEXHT, SHHT, IHT va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan sheriklik munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki (YeTTB) 1990-yilda Londonda tashkil qilingan xalqaro moliyaviy instituti hisoblanib, bankning asosiy maqsadi – Markaziy va Sharqiy Yevropaning sobiq sotsialistik tuzumda bo‘lgan mamlakatlarini bozor iqtisodiyotiga o‘tishiga yordam berishdan iborat. YeTTB faqatgina aniq doiradagi loyihalarni kreditlaydi. YeTTB resurslari XTTBga o‘xshashlik bo‘yicha shakllanadi. YeTTB ishlab chiqarishni (loyihalarni moliyalashtirishni o‘z ichiga olgan holda), infratuzilmani taraqqiy ettirish va qayta tiklashga texnik yordam ko‘rsatishni (ekologik dasturlarni o‘z ichiga olgan holda), aksionerlik kapitaliga investitsiyalari, ayniqsa xususiylashtirilayotgan korxonalarini kreditlashga ixtisoslashgan. Shu bilan birgalikda

YeTTBning asosiy diqqati kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Boshqa xalqaro moliya institutlari singari YeTTB aniq maqsadli investitsiyalarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda maslahat berish xizmatini ko‘rsatadi. YeTTBning bitta strategik vazifasi – davlat korxonalarini xususiylashtirishni qo‘llab-quvvatlash, ularni modernizatsiyalash va tuzilmaviy qayta qurish, shuningdek, ushbu masalalar bo‘yicha maslahatlar berishdan iborat. Respublikamiz Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida o‘zaro keng hamkorlik qilmoqda. O‘zbekiston 1992 yildan boshlab YeTTB ning to‘liq a‘zosi bo‘ldi. Mazkur bank yirik mintaqaviy hukumatlararo kredit tashkiloti bo‘lib, unga a‘zo bo‘lgan barcha mamlakatlar rivojlanish dasturlarini moliyalashga mo‘ljallangan.

So‘nggi yillar mobaynida Yevropaning Avstriya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Slovakiya, Sloveniya, Ispaniya, Italiya, Turkiya, Fransiya, Shveysariya, Chexiya, Norvegiya, Finlyandiya, Latviya, Litva kabi mamlakatlari Tashqi ishlar vazirliklari bilan 20



1-TOM, 12-SON


dan ziyod siyosiy maslahatlashuv o'tkazildi va bunda asosiy e'tibor aynan xalqaro kreditlarni jalb etilishiga qaratildi. Shuningdek, YeTTB faoliyat yurituvchi integratsion birlashma Yevropa Ittifoqi va undagi mamlakatlar bilan eng yuqori va oliy darajadagi uchrashuvlar, konfernsiyalar ilgari kuzatilmagan darajada faollashayotganiga guvoh bo'ldik. Xususan, 2019-yil may oyida Yevropa Kengashi rahbari Donald Tusk ilk marotaba O'zbekistonga tashrif buyurdi. Bundan tashqari, YeIning Tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha endilikda sobiq oliy vakili Federika Mogerini ikki marta (2017-yil noyabr va 2018-yil mart oylari) respublikamizga tashrif buyurdi. O'zbekistonning 2017-yilda amalga oshirilgan tarkibiy islohotlari natijasida yangi yondashuvi YeTTBga mamlakatda qaytadan faollashish, Toshkentda yangi Rezident ofis ochish va 2018-yil sentabr oyida Direktorlar kengashi tomonidan qabul qilingan yangi Davlat strategiyasini tayyorlash imkoniyatini berdi. Hujjat YeTTBning O'zbekistondagi faoliyatining quyidagi operativ va strategik ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi: Iqtisodiyotda xususiy sektorning rolini kuchaytirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish Sektorlar bo'ylab yashil energiya va resurs yechimlarini ilgari surish Mintaqaviy va xalqaro hamkorlik va integratsiyani qo'llab-quvvatlash.

Bankning mamlakat bilan hamkorligining yangi bosqichiga hukumat tomonidan 2017-yil fevral oyida boshlangan yanada ochiq, integratsiyalashgan bozor iqtisodiyoti modeliga o'tish, xalqaro munosabatlarni takomillashtirish, qonun ustuvorligi va sud mustaqilligini mustahkamlash hamda liberallashtirishga erishish yo'lida boshlangan yirik islohotlar dasturi turtki bo'ldi. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishiga ko'maklashish O'zbekiston hukumatining ustuvor vazifalaridandir. YeTTBning O'zbekiston bo'yicha yangi strategiyasida mamlakatda demokratik institutlarni mustahkamlash, fuqarolik jamiyati rolini kengaytirish, ommaviy axborot vositalariga kengroq erkinlik berish va ayollar tadbirkorligini rag'batlantirish zarurligi e'tirof etilgan. Bank, shuningdek, paxta yetishtirish sanoati kabi sohalarda majburiy va bolalar mehnatiga barham berish borasidagi yutuqlarni monitoring qilishni davom ettiradi. YeTTB O'zbekistonda o'z faoliyati yettita yo'nalishini



1-TOM, 12-SON

belgiladi. Bular quyidagi sohalarni rivojlantirishga qaratiladi: - moliya sektori va bank infratuzilmasi; - kichik va o'rta korxonalar; - bozor infratuzilmasi; - energetika majmuasi; - paxtani qayta ishlash va engil sanoatning boshqa tarmoqlari; - sayyohlik infratuzilmasi; - tabiiy resurslarni o'zlashtirish.



1-rasm. O'zbekiston bilan YeTTB o'rtasida amalda bo'lgan loyihalar¹ bo'yicha portfel tarkibi

Hozirgi kunga qadar YeTTB O'zbekiston bilan 110 ta loyihani moliyalashtirish bo'yicha shartnoma imzolagan bo'lib, umumiy miqdorda 3 mlrd 92 mln yevro miqdorda mablag' ajratilgan. Ushbu 110 ta loyihani teng yarmi yakunlangan bo'lib, ushbu loyihalarga 1 mlrd 211 mln yevro miqdorida mablag' sarflangan. 55 ta loyiha esa hali hamon aktiv holatda bo'lib, 1 mlrd 766 mln yevroni tashkil etadi. Aktiv holatdagi loyihalarning 94 foizi (52 dona) xususiy sektorga, qolgan 6 foizi (3 dona) davlat sektoriga tegishli. Hozirgi kunda amalda bo'lib turgan loyihalar asosan Moliyaviy institutlar faoliyatini takomilashtirish, Sanoat, savdo va agrobiznes tarmoqlarini kengaytirish hamda Barqaror infrastrukturani ta'minlashga mo'ljallangan (1-rasm). Yuqoridagi rasm ma'lumotlariga ko'ra, YeTTB bilan

¹ <https://www.ebrd.com/where-we-are/uzbekistan/data.html>



1-TOM, 12-SON

hamkorlikda davom etayotgan loyihalarning 67 foizi mamlakatimizda barqaror infrastrukturani ta'minlashga, 9 foizi sanoat, savdo va agrobiznes tarmoqlarini rivojlantirishga hamda 24 foizi moliyaviy institutlar faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan. YeTTB bilan mamlakatimiz hamkorligi 2017-yildan boshlab jadal rivojlanib bormoqda. Buni biz 1-jadval ma'lumotlarida ko'rishimiz mumkin.

**1-jadval.
2017-2022-yillarda YeTTBning yillik investitsiyalari va loyihalar soni¹⁴**

Yillar	Yillik loyihalar soni	YeTTB yillik sarmoyasi million evro
2017	6	69
2018	12	397
2019	13	517
2020	18	429
2021	22	607
2022	26	839

YeTTBga mamlakatimiz bilan 2016-yilga qadar 39 ta shartnomalar imzolangan bo'lsa, 2017-2022-yillarda 97 ta loyiha imzolangan. 2017-yilga qadar ushbu shartnomalar bo'yicha 1 mlrd 73 mln yevroni tashkil etgan bo'lib, 2017-2022- yillar oralig'iga kelib bu ko'rsatkich qariyb ikki barobarga ortdi va 2 mlrd 858 mln yevroga yetdi. Yuqoridagilarga asoslangan holda, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki va Islom taraqqiyot banki bilan birgalikda mamlakatimizda qator istiqbolli loyihalarni amalga oshirilishida o'zining mablag'larini ajratish bilan faol ishtirok etishini xulosa qilishimiz mumkin. Shuningdek, mamlakatimizdagi bir qator investision loyihalarni amalga oshirishda ham mazkur tashkilotlarning o'rni juda muhimdir.

